



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF E-COMMERCE IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

¹**Urazaliyev Kamoliddin
Tajikulovich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi.*

E-mail: urazaliyev_kamoliddin1979@tsue.uz,

ORCID: 0009-0008-5158-9229

Annotatsiya Annotation

Uzb - Maqolada O'zbekistonda elektron tijoratning shakllanishi va rivojlanishi yoritilgan, mamlakat chakana savdo hajmida elektron tijorat savdo hajmining ulushi, ushbu xizmatlarni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil etilgan. Shuningdek, elektron tijorat sohasida mavjud muammolar aniqlangan hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu sohani rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng - The article explores the formation and development of e-commerce in Uzbekistan, analyzing the share of e-commerce in the country's total retail trade volume and the factors influencing the growth of this sector. It also identifies existing challenges in the field of e-commerce and presents proposals and recommendations for the development of this sector in the context of the digital economy.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *elektron tijorat, elektron tijorat subyektlari, onlayn-savdo, internet-do'kon, raqamli iqtisodiyot, marketpleys.*

❖ *e-commerce, e-commerce entities, online trade, online store, digital economy, trading platform.*

Kirish.

Hozirgi global raqobat va raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, iqtisodiyotda ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va umumlashtirish imkonini yaratadi, shu bilan birga, yuqori darajada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun samarali mexanizmlarni shakllantiradi.

Biznes sohasida axborot jarayonlarini takomillashtirish tadbirkorlik faoliyati

samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan faol va maqsadli foydalanish nafaqat ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, balki bozor iqtisodiyoti sharoitida teng va adolatli raqobat muhitini shakllantirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga oid ma'lumotlarning ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash imkonini ham beradi.

Yuqoridagi vazifalarning dolzarbligi va ahamiyatiga ko'ra mamlakatimizda iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish, aholining o'sib borayotgan

axborot ehtiyojlarini to'la qondirish va qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida keng qamrovli tashkiliy-huquqiy choralar amalga oshirilmoqda. Jahon axborot hamjamiyatiga kirish va jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Elektron tijoratni shakllanishi va rivojlanishi borasida fikrlar mahalliy va xorijiy mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida aks etgan. Iqtisodiy bilimlar sohasining bir yo'nalishi sifatida elektron tijoratning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish masalalari xorijiy olimlardan D.Koze, N.Teriz, M.Xeyg, D.Eymor va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan [1, 2, 3]. Milliy iqtisodchilimlardan B.A.Begalov, S.S.G'ulomov, N.S.Kasimova, B.Yu.Xodievlar tadqiqot ishlarida elektron tijorat va uni yuritishning ayrim xususiyatlari o'rganilgan [4, 5, 6, 7].

I.Kerimova tadqiqot ishida O'zbekistonda elektron tijoratning muvoffaqiyat omillari sifatida: huquqiy baza, raqamli to'lovlar, logistika, kadrlar va mijozlar ishonchi ekanligi ta'kidlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ko'rib chiqilgan [8].

Iqtisodchi Z.Madiyeva o'z tadqiqotlarida, O'zbekistonda elektron tijorat infratuzilmasining joriy holati va rivojlanish yo'nalishlari tadqiq etgan bo'lib, davlat-xususiy sherikchilik va xalqaro hamkorlik elektron tijorat rivojida qulay muhit yaratishini ta'kidlagan [9]. Raqamli tengsizlik, cheklangan mintaqaviy logistika va kiberxavfsilik muammolari asosiy to'siqlar sifatida ko'rilgan.

Iqtisodchi olim K.Urazovning ilmiy ishlarida elektron tijoratning mamlakat YaIMdagi ulushining ortib borishi bilan birga mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari ham yaxshilanishi qayd qilingan [10].

Rossiyalik iqtisodchi Ye.Sibirskaya o'z tadqiqotlarida elektron tijorat texnologiyalari, shakl va vositalari, internet-marketing masalalari o'rganilib, sohaning rivojida

internet muhitida mijozning tabiati, uning o'zini qanday tutishi muhimligi ta'kidlangan [11].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada analiz, sintez, tanlanma kuzatuv, qiyoslash, statistik tahlil, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyotni raqamlashtirishga, jumladan, elektron tijoratni rivojlantirishga muayyan natijalarga erishish imkonini yaratmoqda.

Yuqori texnologiyali zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining keng joriy etilishi natijasida tijorat banklari hamda boshqa kredit tashkilotlari tomonidan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun yangi turdagi to'lov tizimlari va mexanizmlari taklif etilmoqda. Mamlakat aholisining naqd pulsiz hisob-kitob vositalaridan foydalanish darajasi bosqichma-bosqich ortib bormoqda, bu esa raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchning kuchaygani, infratuzilmaning yaxshilanishi hamda moliyaviy savodxonlikning oshgani bilan izohlanadi. Ushbu jarayon iqtisodiyotda naqd pul aylanmasining qisqarishiga, to'lov tizimlarining samaradorligini oshishiga va raqamli iqtisodiyotning izchil rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonda elektron tijoratni amalga oshirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Tahlilchilarning fikriga ko'ra, 2027-yil ohiriga qadar mamlakatimiz elektron tijorat bozorining salohiyati 1,8-2,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi [12]. Mamlakatimizda elektron tijorat bozorining rivojlanishini ta'minlovchi ustunliklar qatorida aholi sonining oshib borishi, raqamli texnologiyalar keng tarqalishi, logistika tizimining takomillashuvi hamda arzon ishchi kuchining mavjudligi alohida e'tirof etiladi.

1-jadval ma'lumotlarining tahlil natijalari, O'zbekistonda chakana savdo hajmi 2016-2024-yillarda nominal qiymatda barqaror o'sish tendensiyasiga egaligini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2016-yilda 88071,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 119,5 foizga ko'payib, 105229,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2018-2020-yillar davomida mamlakatimizda chakana savdo hajmi o'rtacha 20-25-foiz yillik o'sish sur'atlariga ega bo'lib, 2018-yilda 133195,2 mlrd. so'm, 2019-yilda 166094,4 mlrd. so'm va 2020-yilda 199518,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2021-yilda chakana savdo

hajmining o'sish sur'atlari respublikamizda avvalgi yillarga nisbatan kamaygan Albatta ushbu jarayonda jahonda va mamlakatimizda kechgan COVID-19 koronavirus pandemiyasi salbiy ta'sir etgan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda so'nggi 2022-2024-yillar davomida chakana savdo hajmi barqaror 25 foiz atrofida o'sish sur'atlariga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin, jumladan, 2022-yilda 270687,2 mlrd. so'm, 2023-yilda 330448,1 mlrd. so'm va 2024-yilda 410068,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

1-jadval

O'zbekistonda chakana savdo va elektron tijorat savdo hajmini o'zgarish dinamikasi (2016-2024 yy.) [13]

№	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar								
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Chakana savdo hajmi, mlrd. so'mda	88071,6	105229,9	133195,2	166094,4	199518,8	216694,6	270687,2	330448,1	410068,1
2	Chakana savdo hajmining yillik o'sish sur'atlari, foizda	100,0	119,5	126,6	124,7	120,1	108,6	124,9	122,1	124,1
3	Elektron tijorat savdo hajmi, mlrd. so'mda	6	12,1	40,9	275,3	1002,5	5978,7	10886,8	13263,8	15211,5
4	Elektron tijorat savdo hajmining yillik o'sish sur'atlari, foizda	100,0	201,7	338,0	673,1	364,1	596,4	182,1	121,8	114,7
5	Chakana savdoning umumiy hajmida elektron savdoning ulushi, foizda	0,007	0,01	0,03	0,17	0,5	2,8	4	4	3,7

Respublikamizda elektron tijorat savdo hajmini o'zgarish dinamikasini tahlil natijalariga ko'ra, savdoning ushbu yo'nalishi 2016-yildan buyon barqaror o'sish tendensiyasiga egaligini, hatto ayrim yillarda o'sish sur'atlari yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2016-yilda elektron tijorat savdo hajmi 6,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 201,7 foizga ko'payib, 12,1 mlrd. so'm, 2018-yilda avvalgi yilga nisbatan 338,0 foizga ko'payib, 40,9 mlrd. so'm, 2019-yilda 673,1 foizga ko'payib, 275,3 mlrd. so'm, 2020-yilda 364,1 foizga ko'payib, 1002,5 mlrd. so'm hamda 2021-yilda 596,4 foizga ko'payib,

5978,7 mlrd. so'mni tashkil etgan. Ayniqsa 2019-2021-yillar davomida mamlakatimizda elektron tijorat savdo hajmi keskin o'sganligini qayd etish kerak.

Keyingi yillar davomida ham respublikamizda elektron tijorat savdo hajmi o'sish sur'atlariga ega bo'lsada, avvalgi yillarga nisbatan ushbu sur'atlar 2022-yildan boshlab biroz kamaygan, xususan, 2022-yilda 182,1 foizga o'sgan bo'lib, 10886,8 mlrd. so'mni, 2023-yilda 121,8 foizga o'sgan bo'lib, 13263,8 mlrd. so'mni va 2024-yilda 114,7 foizga o'sgan bo'lib, 10886,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.

O'zbekistonda chakana savdoning umumiy hajmida elektron savdoning ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, 2016-yilda ushbu ulush juda kichik miqdorni (0,007 foiz) tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Bunday ko'rsatkich 2017-2019 yillarda ham kuzatilgan, jumladan, 2017-yilda 0,01 foiz, 2018-yilda 0,03 foiz va 2019-yilda 0,17 foizni tashkil etgan. 2020-yilda birinchi marta elektron tijoratning chakana savdo hajmidagi ulushi 0,5 foiz darajasida bo'lgan. 2021-yildan boshlab respublikada elektron tijorat savdo hajmining ulushi avvalgi yillarga nisbatan keskin o'sganligini ko'rishimiz mumkin, xususan, 2021-yilda 2,8 foiz, 2022 va 2023-yillarda 4 foiz hamda 2024-yil natijalariga ko'ra 3,7 foizni tashkil etgan. Albatta bunday o'sish elektron tijorat sohasini jahonda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham jadal sur'atlar bilan rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, elektron savdoning rivojlanishiga raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda koronavirus pandemiyasining ta'sirini e'tirof etishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda elektron tijoratni jadal rivojlantirish maqsadida Elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reestri tashkil etildi. Dastavval, ushbu Milliy reestrni shakllantirish va yuritish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markaziga yuklatilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi "Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi PQ-381-son qaroriga muvofiq, Milliy reestrni shakllantirish, yuritish va kelgusida rivojlantirish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga yuklatildi. Milliy reestrni yuritishning asosiy vazifalari sifatida elektron tijorat ishtirokchilari to'g'risidagi yagona elektron axborot bazasini yaratish, elektron tijoratni joriy etish va rivojlantirish holatining tizimli monitoringini olib borish va baholash, shu jumladan axborot tizimlari va resurslarini joriy qilishning samaradorligini o'rganish va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish belgilandi.

2-jadvalda keltirilgan Elektron tijorat korxonalarining Milliy reestri ma'lumotlarini tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda 2018-yilda 42 ta elektron tijorat bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatgan. 2019-yilda ular soni avvalgi yilga nisbatan 3,6 barobarga ko'payib, 150 tani tashkil etgan. 2020 va 2021-yillarda ham ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar soni jadal sur'atlar bilan o'sganligini, jumladan, 2020-yilda 2,1 barobarga o'sib, 320 ta korxona va 2021-yilda 148,4 foizga o'sib, 475 ta korxona ushbu tarmoqda faoliyat yuritgan. 2022-2024-yillarda elektron tijorat bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlari sonining o'rtacha yillik o'sishi 5 foizni tashkil etgan bo'lib, ular soni 2022-yilda 501 ta, 2023-yilda 514 ta va 2024-yilda 526 ta bo'lgan.

2-jadval

Elektron tijorat korxonalarining Milliy reestrndan ro'yxatdan o'tgan elektron tijorat subyektlari [14]

№	Ko'rsatkichlar	Yillar						
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Elektron tijorat subyektlari soni	42	150	320	475	501	514	526
2	Elektron tijorat subyektlari sonining yillik o'sish sur'atlari	100	357,1	213,3	148,4	105,4	102,6	102,3

Yuqoridagilarga ko'ra, mamlakatimizda onlayn-savdo 2021-yildan boshlab bozordagi o'z o'rnini mustahkamlab olganligini ta'kidlashimiz mumkin. Savdo hajmini ko'payishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va marketpleyslar o'rtasida raqobatning kuchayishi respublikamizda elektron tijoratni rivojlanishida muhim davr bo'ldi. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda 52 ta to'lov tizimlari, 35 ta bank mobil ilovalari va 78 ta internet-do'kon/marketpleyslar faoliyat ko'rsatib, mijozlarga elektron fiskal cheklarni taqdim etgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda elektron tijorat faol o'sib bormoqda. Uzun kabi kompaniyalar bilan bir qatorda, ZoodMall, Chakana, Bookzone, MyTaxi (hozirgi Yango), Express24, iMart, Click, Payme kabi raqamli xizmatlar va elektron tijorat subyektlari ham O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy tarmoqlarida muhim o'rin egallamoqda. Ushbu tashkilotlar elektron savdo, logistika, raqamli to'lovlar va yetkazib berish xizmatlari sohalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etgan holda, mamlakatda raqamli infratuzilmaning shakllanishi va xizmatlar sektori hajmining kengayishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Xususan, xorijiy investorlar mazkur korxonalar faoliyati orqali O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotdagi o'sish salohiyatini yuqori baholab, xizmatlar, IT yechimlar va elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirishga sarmoya kiritmoqda. Masalan, Rossiyaning Wildberries marketpleysi nafaqat buyurtmalarni topshirish nuqtalarini ko'paytirmoqda, balki bir nechta logistika markazlari ko'rinishida infratuzilma ham qurmoqda. Yana bir rossiyalik e-commerce platformasi - Ozon ham O'zbekistonda faoliyatini yo'lga qo'ymoqda.

Mutaxassislarning kelgusi yillar bo'yicha prognozlar optimistik xarakterga ega bo'lib, O'zbekistonda elektron tijorat va raqamli xizmatlar bozori jadal sur'atlar bilan kengayishda davom etishi kutilmoqda. KPMG

prognozlariga ko'ra, bozor har yili 40 foizga o'sib, 2027-yilga kelib, 1,76 mlrd. AQSh dollariga yetishi mumkin [14].

Yirik xalqaro elektron tijorat subyektlarining baholashicha, O'zbekiston bozori raqamli savdo yo'nalishidagi o'zgarishlarga yetarlicha tayyor bo'lib, mavjud ishtirokchilar onlayn savdoni rivojlantirish tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlamogda. Bu holat, avvalo, foydalanuvchilarning odatlari tez o'zgarayotgani va ayniqsa, yoshlar ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi. Aholining raqamli texnologiyalarni tez qabul qilishi, mobil qurilmalardan keng foydalanishi va raqamli xizmatlarga nisbatan ishonchning ortib borayotgani bu sohaning istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, moliyaviy texnologiyalar va onlayn savdo xizmatlarining yagona mobil ilovalar ekotizimi orqali integratsiyalashuvi foydalanuvchilar uchun yanada qulay va kompleks yechimlar taklif qilmoqda. Bu yondashuv orqali nafaqat poytaxt va yirik shaharlarda, balki mamlakatning barcha hududlarida tovar va xizmatlarga kengroq kirish imkoniyati yaratilmoqda. Ya'ni, onlayn xarid qilish jarayoni tobora ommaviylashib, aholining barcha qatlamlari uchun mavjud bo'lib bormoqda.

Mazkur transformatsiya jarayonda sog'lom raqobat muhitining shakllanishi elektron tijorat bozorining yanada takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Foydalanuvchilar turli marketpleyslarning mobil ilovalari, mahsulot assortimenti, narx siyosati va yetkazib berish xizmatlari tezligini o'zaro solishtirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa ularni samarali xaridlar qilishga undaydi. Eng asosiysi, O'zbekistonda onlayn xarid qilish odati tobora shakllanib bormoqda va bu omil elektron tijorat ekotizimining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga turtki bo'lmoqda.

Hozirgi kunda xalqaro marketpleyslarning O'zbekiston bozoriga bo'lgan qiziqishi aynan mamlakatimizda elektron tijorat faol o'sishidan dalolat beradi.

Milliy kompaniyalar uchun esa ushbu jarayonda bozorda o'z o'rnini egallash muhim hisoblanadi. Yirik marketpleyslar bugungi kunda zarur va qulay infratuzilmani yaratish, bo'lib to'lash servisini ishga tushirish, sotuvchilarga kredit olish imkonini berish va smartfon orqali onlayn-do'konni boshqarishga imkon beradigan ilovani ishlab chiqish orqali mijozlarni jalb qilmoqda.

Elektron tijorat sohasida sotuvchi sifatida elektron savdo maydonchasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ulgurji yoki chakana tarzda realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda chakana savdo faoliyatini amalga oshirayotgan o'zini-o'zi band qilgan shaxslar faoliyat yuritishi mumkin.

Koronavirus pandemiyasi O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarini raqamli muhitga moslashishga majbur qildi va elektron savdo maydonlarining shakllanishiga kuchli turtki berdi. Ayniqsa, Telegram, Facebook, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar elektron tijorat platformalari vazifasini bajara boshladi. Bugungi kunda bozorda faoliyat yurituvchi ko'plab chakana savdo subyektlari mijozlar bilan aloqa qilish, mahsulotlarni buyurtma qilish va yetkazib berish jarayonlarini aynan ushbu axborot tizimlari orqali amalga oshirmoqda.

Shu bilan birga, elektron tijoratning bu kabi ommaviy va jadal rivojlanishi huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, ko'plab bitimlar amalda qonun normalarini chetlab o'tib amalga oshirilmoqda. Bu esa bir tomondan iste'molchi va tadbirkor uchun qulay shart-sharoit yaratsa-da, ikkinchi tomondan davlatning soliq va bojxona tushumlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Ma'lumki, elektron tijorat shartnomalari masofaviy tarzda tuziladi. Lekin, onlayn shakldagi bitimlarni rasmiylashtirish ko'p hollarda an'anaviy savdoga nisbatan ko'proq vaqt talab qiladi. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, elektron tijoratdan olinadigan

iqtisodiy samaradorlik turli xil xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun har xil darajada namoyon bo'ladi. Xususan, bu sohada eng katta iqtisodiy manfaatni odatda to'liq "soya" sektorida faoliyat yuritayotgan, ya'ni soliq organlarida ro'yxatdan o'tmagan va tushumlarini rasmiylashtirmaydigan norasmiy tadbirkorlar, yoki aksincha, butunlay qonuniy asosda ishlovchi, barcha normativ-huquqiy talab va fiskal tartibotlarga amal qiluvchi "oq" biznes subyektlari ko'radi. Bu esa elektron tijorat segmentining an'anaviy chakana savdo shakllaridan keskin farqlanishiga sabab bo'luvchi o'ziga xos institutsional xususiyatlaridan biridir.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, Amazon, Alibaba, JD, eBay, Etsy, Zoodmall kabi xalqaro marketpleyslardagi sotuvchilarning 50 foizidan ortig'ini kichik va o'rta biznes subyektlari tashkil etadi. Ular, albatta, amalga oshirayotgan har bir savdo bitimidan belgilangan tartibda soliq to'laydilar. Bu holat elektron tijoratning jahon amaliyotida qanchalik aniq va tartibli huquqiy mexanizmlarga tayanayotganini ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, daromadlarining kamida 80 foizi tovarlar (xizmatlar)ni elektron tijorat orqali realizatsiya qilishdan iborat bo'lgan subyektlar uchun Milliy elektron tijorat subyektlari reestri yuritilishi belgilangan. Keyinchalik elektron tijorat subyektlari faoliyatini rag'batlantirish va ularni rasmiy iqtisodiyot doirasiga jalb etish maqsadida normativ-huquqiy tartibotlarga muayyan o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksida elektron savdo orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilayotgan soliq to'lovchilar uchun soliq yuki kamaytirildi. Unga ko'ra, ushbu subyektlar uchun foyda solig'i stavkasi ilgari amal qilgan 15 foiz o'rniga 7,5 foiz etib belgilandi, yagona

soliq to'lovi stavkasi esa mos ravishda 4 foizdan 2 foizgacha tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan yuritiladigan ushbu reestr bo'yicha e-tijorat.uz portalida jami 576 ta korxona ro'yxatdan o'tgan. Bu esa, amalda, elektron tijorat bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlarining faqat kichik bir qismini – ya'ni rasmiy ro'yxatdan o'tgan va qonunchilik talablariga to'liq rioya qilayotgan subyektlarni qamrab oladi.

Shu tariqa davlat, bir tomondan, elektron tijorat sohasini tartibga solishga harakat qilmoqda, ma'lum soliq imtiyozlarini taklif qilmoqda, biroq bu jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi aniq mexanizmlari taklif qilinmaganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab korxonalar ushbu reestrda qayd etilmagan va shu bois, amalda belgilangan Soliq kodeksidagi imtiyozlardan foydalanmasdan, umumiy tartibda soliq to'lagan.

Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda elektron tijorat sohasini tartibga solish va monitoring qilishda asosiy muammolardan biri – bu sohaga oid aniq, ishonchli va tizimli ma'lumotlarning mavjud emasligidir. Jumladan, elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining aniq soni, ular tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan tovar, xizmat va ishlar hajmi, naqd va naqdsiz tushumlari, shuningdek, ular tomonidan to'langan soliqlar va yig'imlar to'g'risida axborotlarni olish imkonini beruvchi yagona normativ-huquqiy mexanizm mavjud emas.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, mazkur muammoning yechimi sifatida elektron tijorat sohasini samarali tartibga solish va to'liq soliq-statistik hisob yuritish maqsadida quyidagi vazifalarni o'z ichiga olgan maxsus normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish zarur:

❖ aniq, huquqiy jihatdan belgilangan tartibda, elektron tijorat ishtirokchisi deb hisoblanish mezonlarini belgilash;

❖ elektron tijorat subyektlarini avtomatik ro'yxatdan o'tkazish mexanizmini joriy etish;

❖ elektron savdo maydonchalari, banklar va to'lov tizimlari o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish orqali foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

❖ elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi subyektlar aylanmalarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini yaratish;

❖ soliq va statistika organlarining hisobotini avtomatlashtirish.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, elektron tijoratni samarali boshqarish va rasmiy statistikani shakllantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Elektron tijorat ishtirokchilarini aniq mezonlar asosida belgilash va ularni avtomatik ro'yxatga olish tizimini joriy etish orqali soha ishtirokchilarini aniqlash va tartibga solish imkoniyati yaratiladi. Bu esa soya iqtisodiyotini qisqartirish va qonuniy faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, elektron savdo platformalari, banklar va to'lov tizimlari o'rtasida integratsiyalashgan axborot almashinuvi orqali foydalanuvchi ma'lumotlari bazasini shakllantirish, moliyaviy aylanmalarni real vaqt rejimida kuzatish va hisobotlarni avtomatlashtirish orqali soliq va statistika organlarining nazorat salohiyati oshadi. Natijada, elektron tijorat sohasida shaffoflik, hisobdorlik va institutsional barqarorlik ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar.

Elektron tijoratning jadal va ommaviy rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratmoqda, balki bir qator muhim huquqiy va institutsional muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, ko'plab elektron bitimlar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan normalarni chetlab o'tgan holda amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda. Bunday holatlar qisqa muddatda iste'molchilar va

tadbirkorlar uchun qulaylik yaratishi mumkin, biroq uzoq muddatli istiqbolda davlat byudjetining asosiy moliyaviy manbalaridan biri bo'lgan soliq va bojxona tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayni paytda mavjud normativ-huquqiy baza raqamli iqtisodiyotning real sharoitlari va elektron tijorat munosabatlarining murakkab tabiatiga to'liq moslashtirilmagan. Shu sababli, davlat tomonidan elektron tijorat sohasiga oid qonunchilikni qayta ko'rib chiqish, uni modernizatsiya qilish hamda zamonaviy iqtisodiy muhitga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda elektron tijorat sohasida ko'plab subyektlar faoliyat yuritmoqda. Ularning ma'lum bir qismi o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa-da, ayrimlari zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, davlat ro'yxatidan o'tmasdan va soliq majburiyatlarini bajarmagan holda tijorat faoliyatini olib bormoqda. Bu esa mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot ko'lamining kengayishiga, natijada esa budjet daromadlarining kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Козье Д. Электронная коммерция. Пер. с англ. - Москва: Издательско-торговый дом "Русская редакция", 1999. - 288 с: ил.
2. Teriz N. The impact of e-commerce on international trade and employment. - *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 2011.- p.251.
3. Хейг М. Основы электронного бизнеса /. Хейг М. - М.: ФА-ИР-Пресс, 2002.-386 с.; Эймор Д. Электронный бизнес: эволюция или революция /. Эймор Д. [пер с англ] -. М.: Издательский дом "Вильямс", 2001 - 752 с.
4. G'ulomov S.S. va boshqalar. "Iqtisodiy informatika". -T. "O'zbekiston", 1999.-528 b.
5. Ходиев Б.Ю. ва бошқалар. "Экономическая информация: классификация, коммерческая тайна и информационная безопасность". -Т., "Фан", 2002.-412 б.
6. Бегалов Б.А. Технология процессов формирования информационно-коммуникационного рынка. Монография.-Т.: Фан, 2000. -126 с.
7. Касимова Н.С., Мухторова У.К.. Малый бизнес и частное предпринимательство. Учебное пособие.-Т.: ТФИ, 2019.-180 с.
8. Kerimova Irina, Ataniyazova Zamira. Determining the critical success factors of e-commerce in Uzbekistan. *The Journal of Eastern European and Central Asian Research*. Vol. 11 No. 3 (2024).
9. Madiyeva Z. Trends in the development of e-commerce infrastructure in Uzbekistan. Vol. 11 No. 2 (2025): *International journal of scientific researchers*.
10. Khushmurodova M., Urazov K. Trends and Problems of Development of Electronic Commerce in the Republic of Uzbekistan. *Journal of Law and Sustainable Development* 11(6): September 2023.
11. Электронная коммерция: учебник / С. Н. Буханцева, И. Ю. Владыко, И. Р. Ляпина [и др.]; под общ. ред. Е. В. Сибирской. Издательство: КноРус, 2024 г., 256 стр. ISBN: 978-5-406-13016-2.
12. <https://kpmg.com/uz> – KPMG xalqaro auditorlik kompaniyasi ma'lumotlari.
13. <https://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining sayti.
14. <https://e-tijorat.uz> – O'zbekiston Respublikasi elektron tijorat korxonalarining Milliy reestrining sayti.